

Fargʻona viloyatida umumiy oʻrta taʼlim


2024/2025 oʻquv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari
- II. Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida tahsil olayotgan oʻquvchilar
- III. Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari
- IV. Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan oʻqituvchilar (oʻrindoshlarsiz)
- V. Umumiy oʻrta taʼlim boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar


I. Faoliyat yuritayotgan umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari

Fargʻona viloyatida 2024/2025 oʻquv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari soni **1 080 tani** tashkil etgan va 2020/2021 oʻquv yili boshiga nisbatan **103 taga**, yaʼni **10,8 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari soni
(tegishli oʻquv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumtaʼlim tashkilotlari soni



2024/2025 oʻquv yili boshiga viloyatda jami **455 ta** nodavlat umumtaʼlim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2020/2021 oʻquv yiliga nisbatan ularning soni **4,5 barobarga koʻpaygan**.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Umum ta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat umumta'lim tashkilotlari
Farg'ona viloyati bo'yicha	1 080	93
Oltiariq	50	3
Bag'dod	50	4
Beshariq	70	1
Buvayda	60	4
Dang'ara	63	4
Quva	77	9
Qo'shtepa	59	
Rishton	83	15
So'x	34	1
Toshloq	52	1
O'zbekiston	72	3
Uchko'prik	67	2
Farg'ona	46	3
Furqat	39	1
Yozyovon	41	
Farg'ona sh	73	18
Qo'qon sh	67	15
Quvasoy sh	34	3
Marg'ilon sh	43	6

2024/2025 o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Rishton (83 ta), Quva (77 ta) va Beshariq (70 ta) tumanlarda qayd etilgan bo'lsa, boshqa viloyatlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Quvasoy sh (34 ta), So'x (34 ta) va Furqat tumanlarida (39 ta) qayd etilgan.

Nodavlat umumta'lim tashkilotlariga kelsak, ularning ko'p qismi Farg'ona shahri (18 ta), Qo'qon sh. (93 ta) va Rishton (38 ta) tumanida, eng kami esa So'x va Toshloq hamda Furqat tumanlarida (har bir tumanda 1 tadan) qayd etilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Farg'ona viloyatida 2020/2021 – 2024/2025 o'quv yillarida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o'quvchilarning umumiy soni **41,4 ming kishiga**, ya'ni **4,5 % ga** ko'paygan.

O'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



O'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O‘quvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		qiz bolalar	o‘g‘il bolalar	qiz bolalar	o‘g‘il bolalar
Farg‘ona viloyati bo‘yicha	721,7	35,4	36,7	49,1	50,9
Oltiariq	37,8	18,7	19,0	49,6	50,4
Qo‘sh tepa	35,7	17,9	17,8	50,1	49,9
Bog‘dod	41,4	20,9	20,5	50,5	49,5
Buvayda	46,4	22,6	23,7	48,9	51,1
Beshariq	43,6	21,8	21,8	50,0	50,0
Quva	44,9	22,1	22,7	49,3	50,7
Uchko‘prik	42,8	21,0	21,8	49,1	50,9
Rishton	40,3	19,5	20,7	48,6	51,4
So‘x	18,1	8,9	9,1	49,4	50,6
Toshloq	34,1	17,2	16,9	50,4	49,6
O‘zbekiston	41,7	20,4	21,3	49,0	51,0
Farg‘ona t	37,8	18,8	18,9	49,9	50,1
Dang‘ara	31,1	15,3	15,7	49,3	50,7
Furqat	21,8	10,5	11,3	48,2	51,8
Yozyovon	21,7	11,1	10,5	51,3	48,7
(shaharlar)					
Farg‘ona	66,6	30,4	36,1	45,7	54,3
Qo‘qon	56,1	27,0	29,0	48,2	51,8
Quvasoy	16,7	8,2	8,5	49,0	51,0
Marg‘ilon	42,2	21,1	21,0	50,0	50,0

Farg'ona viloyatining barcha hududlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan o'rtacha **1,8 % ga** ortadi. O'quvchilarning eng ko'p qismi Farg'ona shahar (**66,6 ming**), Qo'qon shahar (**56,1 ming**) va Buvayda (**46,4 ming**) tumanlarida qayd etilgan, eng kami esa Quvasoy shahri

(56,7 ming) va So'x (18,1 ming) tumaniga to'g'ri kelgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng sezilarli tafovut Farg'ona shahrida bo'lgan (o'g'il bolalar – 54,3 %, qiz bolalar – 45,7 %), boshqa hududlarda o'g'il va qiz bolalar nisbati taxminan bir xil.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'quvchilar soni \(jami\)](#)


[O'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)

[O'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari

2024 yilda Farg'ona viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX sinf bitiruvchilari soni **48,8 ming kishini** tashkil etgan va 2020 yilga nisbatan ularning soni **3,4 ming kishiga**, ya'ni **6,5 % ga** kamaygan. XI sinf bitiruvchilari soni esa, aksincha, 2024 yilda 2020 yilga nisbatan **4,1 ming kishiga**, ya'ni **8,6 % ga** kamaygan va **4,1 ming kishini** tashkil etgan.

IX va XI sinf bitiruvchilari soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



IX sinf bitiruvchilari soni XI sinf bitiruvchilariga nisbatan ko'pligi ba'zi o'quvchilar IX sinfni tugatgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar maktablarida o'z o'qishlarini davom ettirayotgani anglatadi.

IX va XI sinf bitiruvchilari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	IX sinf bitiruvchilari	XI sinf bitiruvchilari
Farg'ona viloyati bo'yicha	48 849	43 660
Oltiariq	2 557	2 641
Bag'dod	2 543	2 407
Beshariq	2 195	2 553
Buvayda	3 925	3 273
Dang'ara	2 510	2 624
Quva	3 179	2 741
Qo'shtepa	2 274	2 253
Rishton	3 197	2 647
So'x	1 362	1 179
Toshloq	1 974	1 910
O'zbekiston	2 823	2 724
Uchko'prik	2 866	2 314
Farg'ona	2 061	1 900
Furqat	1 493	1 391
Yozyovon	1 208	1 146
Farg'ona sh	5 226	2 641
Qo'qon sh	3 893	2 407
Quvasoy sh	1 207	2 553
Marg'ilon sh	2 356	3 273

IX sinf bitiruvchilarining eng ko'p qismi Farg'ona (**5,2 ming**) va Qo'qon (**3,9 ming**) shaharlarida, eng kami esa Yozyovon t (**1,2 ming**) va Quvasoy sh (**1,2 ming**) qayd etilgan. XI sinf bitiruvchilari orasida ham Farg'ona (**3,7 ming**) va Qo'qon (**3,1 ming**) shaharlari yetakchilik qilmoqda, Quvasoy sh (**1,1 ming**) va Yozyovon (**1,1 ming**) tumanida esa bu ko'rsatkich eng past darajada bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[IX sinf bitiruvchilari](#)

[XI sinf bitiruvchilari](#)

IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshiga Farg'ona viloyatining umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni **59,3 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **4,9 ming kishiga**, ya'ni **9,0 % ga** ko'paygan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Farg'ona viloyatida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi o'qituvchilarning asosiy qismini ayollar tashkil etgan – **76,5 % (45,3 ming kishi)**, erkaklar esa **23,0 % ni (14,0 ming kishi)** tashkil etgan

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Farg'ona viloyati bo'yicha	59,3	45,33	14,0	76,5	23,5
<i>viloyatlar:</i>					
Oltiariq	3,4	2,9	0,6	82,8	17,2
Qo'shtepa	2,7	1,9	0,8	70,9	29,1
Bog'dod	3,8	3,0	0,8	79,3	20,7
Buvayda	4,2	3,3	0,9	77,7	22,3
Beshariq	3,9	3,0	0,9	76,6	23,4
Quva	3,6	2,7	0,9	75,2	24,8
Uchko'priq	4,0	3,2	0,7	81,4	18,6
Rishton	4,1	2,9	1,2	70,0	30,0
So'x	1,5	0,4	1,1	25,5	74,5
Toshloq	2,6	1,9	0,7	74,1	25,9
O'zbekiston	3,6	2,9	0,7	81,6	18,4
Farg'ona t	3,1	2,4	0,7	78,8	21,2
Dang'ara	2,8	2,2	0,7	76,7	23,3
Furqat	1,9	1,5	0,4	79,4	20,6
Yozyovon	1,9	1,4	0,5	72,7	27,3
<i>shaharlar</i>					
Farg'ona	4,5	3,7	0,8	81,4	18,6
Qo'qon	3,8	3,1	0,7	81,4	18,6
Quvasoy	1,4	1,0	0,4	74,3	25,7
Marg'ilon	2,6	2,0	0,5	79,0	21,0

Eng yuqori ayol-o'qituvchilar ulushi Oltiariq tumaniga to'g'ri kelgan (**82,8 %**), So'x tumanida esa bu ko'rsatkich nisbatan pastroq bo'lgan (**25,5 %**). O'qituvchilarning eng katta qismi Farg'ona shahar (**4,5 ming kishi**) va Buvayda (**4,2 ming kishi**) tumanida qayd etilgan, boshqa viloyatlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Quvasoy shahar (**1,4 ming kishi**) hamda So'x (**1,5 ming kishi**) tumaniga to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Chislennost uchiteley (vsego)

V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Farg'ona viloyatida umumiy o'rta ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobot – **1-umumta'lim shakli** "Umumta'lim muassasasining hisoboti" asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari, boshqa vazirlik va idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Umumta'lim muassasasining statistik hisobotida o'quvchilar, bitiruvchilar, o'qituvchilar soni hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

O'quvchilar va o'qituvchilar soni, umumta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlar yangi o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil uchun keltiriladi. Yig'ma ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ta'lim islohotlarini rejalashtirish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida va boshqa xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi b o'limi

Manzil: 150100, Farg'ona sh ,
Oq yo'l ko'chasi, 104 A
El manzil: farstat@farstat.uz
Tel: 71-202-80-70 (71)

